

TURK TILI VA XORAZM SHEVASIDAGI ISIM SO‘Z TURKUMIGA OID O‘ZARO MA‘NODOSH BIRLIKLAR

Saburov Bobur

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasi o‘rtasidagi isimlar so‘z turkumiga oid so‘zlardagi o‘xshashliklar va ularning o‘zbek tilining qolgan lahjalaridan ayiruvchi xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan hamda ularga bir qator misollar keltirilgan. Ba‘zi bir jihatlariga ko‘ra xorazm shevasi o‘zbek tilining boshqa lahjalariga mansub shevalaridan ko‘ra turk tilida yaqinligi seziladi. Xorazm shevasining o‘zbek tilidagi qolgan shevalardan farqliligini ko‘rsatuvchi, turk tilida ham bir xil ma‘noni anglatuvchi so‘zlar talaygina. Dunyoning barcha til va shevalarida bo‘lgani kabi o‘g‘uz guruhiga mansub til va sheva hisoblanuvchi turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasida ham ularni qolgan tillardan ajratib turuvchi ot, sifat, son, ravish, fe‘l so‘z turkumlariga oid so‘zlar va so‘z birikmalari mavjud. Turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasidagi ma‘nodosh va bir xil bo‘lgan so‘zlari qatoriga qarindosh-urug‘chilik (dayi), arxitektura (dalan), inson tana a‘zolari (dudak), tibbiyot (öksürük) va boshqa ko‘plab sohalardan misol keltirish mumkin. Turk tilida va xorazm shevasida qo‘llaniluvchi so‘zlarning ba‘zilari turk tilida ko‘plab va xilma-xil ma‘nolarni ifodalagan holda xorazm shevasida aniq bir ma‘noni ifodalashi va yoki buning aksi kuzatilishi ham mumkin. Turk tili va xorazm shevasidagi ma‘nodosh so‘zlar orasida talaffuzda bazi bir farqliliklar mavjud. Bunday farqlar asosan –e va –a tovushlarining hamda –u va –o tovushlarining o‘z o‘rnini ikkinchisiga bo‘shatib berishi bilan bog‘liq. Ba‘zi so‘zlar o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lsada amalda muomalada faqat xorazm vohasida saqlanib qolingan va ularning turk tilida ham bir xil shakldagi ma‘nodoshlari mavjud.

Tayanch so‘z va iboralar: Turkiy tillar, Isimlar, fonetik farqlar, o‘g‘uz tillari, sheva, frazeologik iboralar, maqol, O‘zbek adabiy tili, Xorazm.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется сходству турецкого и хорезмского диалектов узбекского языка в плане существительных и их отличиям от других диалектов узбекского языка, а также приводится ряд их примеров.. По некоторым аспектам хорезмский диалект ближе к турецкому языку, чем диалекты, относящиеся к другим диалектам узбекского языка. Есть много слов, которые показывают отличие хорезмского диалекта от других узбекских диалектов и имеют в турецком языке одинаковое значение. Как и во всех языках и диалектах мира, в турецком языке и хорезмском

диалекте узбекского языка, которые считаются языками и диалектами, принадлежащими к огузской группе, имеются слова и словосочетания, связанные с существительными, прилагательными, числами, наречиями и глаголами, которые отличают их от других языков. Среди синонимов и одних и тех же слов в турецком языке и хорезмском диалекте есть родство (*dayı*), архитектура (*dalan*), части человеческого тела (*dudak*), медицина (*öksürük*) и примеры можно привести из многих других областей. Некоторые слова, используемые в турецком языке и в хорезмском диалекте, выражают множество разнообразных значений в турецком языке и выражают определенное значение в хорезмском диалекте, или наоборот. Существуют некоторые различия в произношении аналогичных слов в турецком языке и хорезмском диалекте. Такие различия обусловлены главным образом тем, что звуки *-e* и *-a* и *-u* и *-o* уступают место другим. Хотя некоторые слова существуют в узбекском литературном языке, на практике они сохранились только в Хорезмском оазисе, и такое же значение они имеют и в турецком языке.

Опорные слова и выражения: Тюркские языки, существительные, фонетические особенности, огузские языки, диалект, Узбекский литературный язык, пословица, Хорезм.

ABSTRACT

This article focuses on the similarities between the Turkish and Khorezm dialects of the Uzbek language in terms of nouns and their differences from other dialects of the Uzbek language, and also provides a number of examples. In some aspects, the Khorezm dialect is closer to the Turkish language than dialects belonging to other dialects Uzbek language. There are many words that show the difference between the Khorezm dialect and other Uzbek dialects and have the same meaning in Turkish. This article focuses on the similarities between the Turkish and Khorezm dialects of the Uzbek language in terms of nouns and their differences from other dialects of the Uzbek language, and also provides a number of examples. In some aspects, the Khorezm dialect is closer to the Turkish language than dialects belonging to other dialects Uzbek language. There are many words that show the difference between the Khorezm dialect and other Uzbek dialects and have the same meaning in Turkish. As in all languages and dialects of the world, in the Turkish language and the Khorezm dialect of the Uzbek language, which are considered languages and dialects belonging to the Oguz group, there are words and phrases associated with nouns, adjectives, numbers, adverbs and verbs that distinguish them from other languages. Among the synonyms and the same words in the Turkish

language and the Khorezm dialect are kinship (*dayı*), architecture (*dalan*), parts of the human body (*dudak*), medicine (*öksürük*) and examples can be given from many other fields. Some words used in the Turkish language and in the Khorezm dialect express many different meanings in Turkish and express a certain meaning in the Khorezm dialect, or vice versa. There are some differences in the pronunciation of similar words in the Turkish language and the Khorezm dialect. Such differences are due mainly to the fact that the sounds *-e* and *-a* and *-u* and *-o* give way to others. Although some words exist in the Uzbek literary language, in practice they were preserved only in the Khorezm, and they have the same meaning in Turkish.

Keywords and expressions: *Turkic languages, nouns, phonetic features, Oghuz languages, dialect, Uzbek literary language, proverb, Khorezm.*

KIRISH

Ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o'rganib kelganlar. Bu so'z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni *ismlar* atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Turk tilida ham shu kabi tushuncha mavjud. Shu sababli turk tili va o'zbek tilining xorazm shevasidagi ma'nodosh so'zlarni mayda guruhlariga ajratmasdan birlashtirib o'rganishni maqsad qildik. Turk tili va xorazm shevasidagi ma'nodosh so'zlardan isimlar asosiy qismni tashkil etadi. Quyida keltirilib o'tilgan isimlar turli xil soha va mavzuga oid.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Ad” so'zi bir shaxs yoki biror narsaning ismini, nomini bildiruvchi so'zdir¹. Xorazm shevasida ham aynan bir hil ma'noda qo'llaniladi. Bunda **ad** so'zi ishlatilishi uchun nomlanuvchining jonli yoki jonsiz bo'lishi ahamiyatli emas. Bundan tashqari ad so'zi bilan yasalgan bir qancha so'z birikmalari ham ma'no jihatidan o'xshash hisoblanadi.²

Masalan,

¹ www.sozluk.gov.tr

² EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezmi-Oğuzcası. 114-126 b.

Turk tilida: *"Görmediniz mi, adını söyleyince herkes put kesiliyor."* – **Ahmet Hamdi Tanpınar**³

Xorazm shevasida: *Og'am mannan muğallimimni adını soradı.*

Acı so'zi turk tilida keng qamrovli so'z bo'lib ta'mning achchiqliginingina anglatib qolmagan azob, uqubat manolarini ham bildiradi. Xorazm lahjasida esa faqat ta'm achchiqligi manosida bir xil ma'noni anglatadi. Faqat Xorazmda ushbu so'zdagi **c** tovushi ba'zan ikkilangan holda ko'zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: *"O acı kahvesini yudumluyordu."* – **Tarık Buğra**

Xorazm shevasida: *U ovkatını accı bolışını hohladı.*

Adım so'zi o'zbek tilida qadam so'ziga to'g'ri keladi. Turk tilida va Xorazm lahjasida ham bu so'z bir xil ma'no anglatadi va bir xilda talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *Cebimize bir tane adım sayar alarak 5 bin adımın üstüne çıkacak kadar bir yürüyüş yapmak gerekir.*

Xorazm shevasida: *Feruz har adımında koshık aytıb borar adi.*

Turk tilida, o'zbek adabiy tilidagi aka so'zi **ağabey** shaklida mavjudligi ma'lum. Ammo uni xorazm shevasida bo'lgani singari **ağa** tarzida qo'llashlarini ko'pchilik bilmasa kerak. Bu talqinda ham turk tilida ham xorazm shevasida ushbu so'z bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Köye varınca ağamdan parasını muhakkak alır, sana veririm."* -

Etem İzzet Benice

Xorazm shevasida: *Sarvarning ağası ertang armiyadan kaytar akan.*

Aşağı so'zi past yoki pastki qism ma'nosini bildiradi. Xorazm shevasida bu so'z bazan **aşağ(ı)** bazan **aşak** tarzida talaffuz qilinadi ammo bir xil ma'noni anglatadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Aşağı katı, sakin ve daha sıcak olduğu için seçtik."* – **Aka**

Gündüz

Xorazm shevasida: *Akam aşağıdaki kutulani alışımni ayttı.*

Turk tilidagi **Belli** so'zi o'zbek adabiy tiliga yashirin bo'lmagan, ochiq- oydin, aniq ma'nolarida tarjima qilinadi. Xorazm shevasida bo'lsa bir xil ma'noni anglatadi faqat e tovushi biroz *â* tovushiga yaqinlashadi.

Masalan,

³ Turk tilida keltirilgan ushbu maqoladagi misollarning barchasi Turk Dil Kurumining rasmiy www.sozluk.gov.tr saytidan olingan.

Turk tilida: "*Bu azade insanlarda her türlü adiliklerden uzak bir efendilik olduğu ne kadar da bellidir.*" – **Asaf Halet Çelebi**

Xorazm shevasida: *Toy günü bâlli bolğanına hamma hursand boldı.*

Bıçkı so‘zi arra ma’nosini anglatadi. Ya’ni biror bir daraxt yoki yog‘ochni arralovchi uskuna. Ot so‘z turkumidagi ushbu so‘z Xorazm shevasida bir xil yoziladi va tallaffuz qilinadi.⁴

Masalan,

Turk tilida: *Sabah kalkar kalkmaz kendime yeni bıçkı alacağım.*

Xorazm shevasida: *Azandan bari bıçkımnı topolmiman.*

Bulaşık so‘zi turk tilida va xorazm shevasida kir, kirlangan, ifloslangan ma’nolarinin beradi va asosa idish-tovoqlarga nisbatan ishlatiladi. Talaffuzida ham hech qanday far mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: "*Bu karmakarışık ve bulaşık âlemi kendi hâline bırakırdı.*" -

Abdülhak Şinasi Hisar

Xorazm shevasida: *Bulaşıklanı tazalaş Sanamni boynında adi.*

Asl kelib chiqishi forsiy so‘z bo‘lgan **Çörek** nonning bir turi ya’ni hamirdan tayyorlanuvchi maxsulot. Bu shaklda Xorazm shevasida ham ko‘zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kahve ile çörek yiyerek çok iştahlı bir kahvaltı yapmıştır.*" –

Salâh Birsal

Xorazm shevasida: *Sevara apkamni yapkan çöraklarınıı hammasi yeyildi.*

Çürük sifati o‘zbek tilida chirigan, mo‘rt ma’nolarini bildiradi. Xorazm shevasida ham turk tilidagi kabi bir xilda talaffuz qilinib bir xilda yoziladi.

Masalan,

Turk tilida: "*Yabancı, kirli, çürük dişlerini göstererek gülümsüyordu.*" - **Ömer Seyfettin**

Xorazm shevasida: *Almanı çürükünü alıb taşlab yeyişim garak adi.*

Inson va jonzotlar tanasidagi qon tomirlarini anglatuvchi **damar** so‘zi xorazm shevasida ham ayni shaklda uchraydi. Faqatgina ba’zi hududlarda damar o‘rnida damir ishlatilishi ko‘zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Alnında ve şakaklarında şişen damarlar ağrıyordu.*" - **Peyami**

Safa

Xorazm shevasida: *İzzat azıb getganından damarları görünib kalvadi.*

⁴ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.

Bunday ma'nodosh so'zlar arxitektura va uy-joy sohalarini ham chetlab o'tmagan. Ya'ni uying biror qismiga nom berishda ham turk tili va xorazm lahjalarida o'xshashliklar ko'zga tashlanib turadi. Ulardan biri **dalan** so'zidir. Bu atama bilan uying yoki biror obyektning kiraverishdagi qismi nomlanadi. Bunda xorazm shevasida ham turk tilidagi kabi yozilib, talaffuz qilinadi.⁵

Masalan,

Turk tilida: *Eski Yunanlilar, kutsal tapinakların önünde bulunan ve bir çeşit revaklı giriş olan dalana, pronaos derlerdi...*

Xorazm shevasida: *Begana avazni eşitgan atam tez giyinip dalana çıktı.*

Turk tilida **denk** so'zi xorazm shevasida **dâng** yoki **dengk** ko'rinishida mavjud. Ushbu so'zning o'zbek adabiy tilidagi varianti **-teng** so'zidir.

Masalan,

Turk tilida: "*Çok aradım bulamadım dengimi / Elvan çiçeklerden aldım rengimi*" - **Halk türküsü.**

Xorazm shevasida: *Anvar ağam bilan Sancar ağamni ağırlıkları dâng galmadi.*

Asli kelib chiqishi forcha bo'lgan **destek** so'zi turk tilida va xorazm shevasida bir xil ma'nolarni anglatadi va bir xil talaffuz qilinadi. Bunda yoqdam, ko'mak, qo'llab-quvvatlash ma'nolari asosiy hisoblanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kızardı, söylenirdi ama gene de tek desteği oydu hayatta.*" -

Orhan Hançerlioğlu

Xorazm shevasida: *Oğabekni işda öşişinde dayısının desteği yardım bardi.*

Dışarı⁶ so'zi xorazm shevasida bazan dışarı shaklida ba'zan dışan shaklida yoziladi va talaffuz qilinadi. Bu so'z o'zbek adabiy tilida tashqari yani tashqari qism ma'nosida ifodalanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Dışarıda, çocuklar birdirbir oynamaya dalmışlardı.*" - **Atilla İlhan**

Xorazm shevasida: *Biza bilan galgan adamla dışarıda kutib duruptı.*

Masalan,

Turk tilida: "*Çevik adımlarla dimdik yürüyen, uzun boylu, yakışıklı, varlıklı bir adam.*" - **Refik Halit Karay**

Xorazm shevasida: *Yakında kasal bolgan Nodir dimdik toya girib galdi.*

Turk tilida ham Xorazm shevasida ham bir xilda yoziluvchi va talaffuz qilinuvchi **diri** so'zi⁷ o'zbek adabiy tiliga tirik tarzida tarjima qilinadi.

⁵ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.

⁶ www.sozluk.gov.tr

Masalan,

Turk tilida: "*Duydum, görmedimse de hortlayan ölüleri / Fakat hortlak diriden kimin vardır haberi?*" - **Faruk Nafiz Çamlıbel**

Xorazm shevasida: *Ahmad kırk yıldan bâri görmagan ânasini hâli diri âkânini eşitib kuvondi.*

Diri soʻzining orttirma nisbattagi shakli boʻlmish **dipdiri** soʻzi ham turk tili va xorazm shevasida bir xil maʼnoni anglatadi va aynisi yoziladi.

Masalan,

Turk tilida: "*O gün çözer gibi olmuştu Kütahya çinilerindeki dipdiri renklerin gizini.*" - **Necati Cumalı**

Xorazm shevasida: *Bahadır dayı uruşhtan dipdiri kaytib galdi.*

Ishimiz davomida inson taʼna aʼzolarining nomlanishidagi bir xilliklarga bir necha bor misol keltirib oʻtdik. Ulardan biri turk tilida va xorazm shevasida oyoqlardagi tizzani anglatuvchi **diz** soʻzidir. Ushbu soʻzning yozilishi ham talaffuzqilinishi ham ayni shakldadir.

Masalan,

Turk tilida: "*Bir iskemlede ellerini dizlerine sermiş, sessizce oturuyordu.*" - **Ayla Kutlu**

Xorazm shevasida: *Yügürüb baryatırgan bala yıkılıb dizasi bilan tüşti.*

Dolu soʻzi turk tilida ham xorazm shevasida ham oʻzbek adabiy tilidagi toʻla soʻzining maʼnosini bildiradi. Faqat xorazm shevasida u tovushi baʼzan "I" tovushiga almashtirilib talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Haftaya pazartesiye kadar bütün uçaklar dolu.*" - **Attila İlhan**

Xorazm shevasida: *Üç aydan bari uyimiz dolu meyman.*

Insonning labini va baʼzan ogʻzini bildiruvchi turk tilidagi **dudak** soʻzi xorazm shevasida ham xuddi shu talqinda yozilib talaffuz qilinadi. Faqat xorazm shevasida baʼzan **dodak** koʻrinishida ham uchrashi mumkin.

Masalan,

Turk tilida: "*Birdenbire kavalı dudaklarına götürdü ve üfürmeye başladı.*" - **Halide Edip Adivar**

Xorazm shevasida: *Dudakları yaradan çişib getganini görgan Bikacan korkıb getti.*

Hali soʻzi xorazm shevasida biroz oʻzgargan holatda yaʼni **ğali** koʻrinishida uchraydi. Bunda oʻzbek adabiy tilidagi gilam maʼnosini beradi.

Masalan,

⁷ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.

Turk tilida: "*Pencerelerden Türk kadınlarının dokuduğu halılar ve seccadeler sarkıyor.*" - **Falih Rifkı Atay.**

Xorazm shevasida: *Yakında uya yahşısınnan ikki dâna ğalı satıb aldım.*

O‘zbek adabiy tiliga lazzat, maza, rohat sifatida tarjima qilinuvchu turk tilidagi **haz** so‘zi xorazm shevasida ham bir xilda yoziladi va talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Dört sene evvel kaybettiği karısı Emine Hanım'ın vefatıyla bütün sevgisini, ümidini, hazzını, şefkatini oğluna vermişti.*" - **Asaf Halet Çelebi**

Xorazm shevasida: *Horazm lezgisi tânângâ haz baradi.*

Sifat so‘z turkumiga kiruvchi, yirik, katta, bahaybat ma’nolarini anglatuvchi turk tilidagi **iri** so‘zi xorazm shevasida ham shu ma’nolarni anglatadi. Talaffuzida ham farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: "*Erdal, nişan halkasına benzediğini fakat taşlarının iri olduğunu söyledi.*" - **Emine Işınsu**

Xorazm shevasida: *Ğapırlanı üyina bugün iri bir adam meymana galdi.*

Karınca turk tili va xorazm shevasida chumolini anglatadi. Talaffuzida farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: *Karıncadan ibret al, yazdan kışı karşılar.*

Xorazm shevasida: *Javlan çarvağdeki karıncaları inini buzıp taşıadı.*

O‘zbek adabiy tilidagi qavat so‘zi turk tili va xorazm shevasida **kat** ko‘rinishida mavjud.

Masalan,

Turk tilida: "*Yemekten sonra evin üst katında, ocaklı bir odaya çıktık.*" - **Sait Faik Abasıyanık**

Xorazm shevasida: *Halamni katta balası beşinci katda yaşidadi.*

Turk tilida qo‘shni ma’nosini bildiruvchi **komşu** so‘zi xorazm shevasida ba’zan **komşu** ba’zan bo‘lsa **kongşu** tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Çok geçmeden odaya çevredeki komşular dolmaya başladı.*" - **İhsan Oktay Anar**

Xorazm shevasida: *Taza komşulanı sâsinnan korkıb uyanıb gettim.*

Quduk ma’nosini anglatuvchi **kuyu** so‘zi ham turk tilida va xorazm shevasida bir xil talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kahveci Salih eğilmiş, az evvel sarkittiği gazozları kuyudan çıkarıyordu.*" - **Haldun Taner**

Xorazm shevasida: *Üyimizni içinde kuyu kazdırışını oyladık.*

Öksürük soʻzi yoʻtalni anglatadi. Xorazm shevasida baʻzan **öksürük** soʻzi **öksürük** tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Trende herkes uyuyor, uzun bir öksürük silsilesi ve bazı iniltilerden başka ses yok.*" - **Halide Edip Adıvar**

Xorazm shevasida: *Mâclista hammani aldında birdân kattı öksürük tuttu.*

Ulush yoki foydaning bir qismini anglatuvchi **pay**⁸ soʻzi ham turk tili va xorazm shevasida bir xil yozilib, talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *Sadece gelirden minik bir pay görmek istiyorum ki ben de oyundan zevk alabileyim.*

Xorazm shevasida: *Payını almayınca durğan yerinnen dârpânmedi.*

Hafta kunlarining nomlanishida ham baʻzi bir oʻxshashliklar mavjud boʻlib ularga misol sifatida **pazar günü** soʻzini koʻrsatish mumkin. Bunda xorazm shevasida biroz oʻzgarish yuz berib **bazar günü** shklida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *O bir çocukken, pazar günleri balık tutmaya giderdi.*

Xorazm shevasida: *Sarvar otırışmanı bazar gününe koydı.*

Salıncak soʻzi xorazm shevasida **sarıncak** shklida talaffuz qilinadi. Oʻzbek adabiy tilidagi argʻimchoq soʻziga toʻgʻri keladi.

Masalan,

Turk tilida: "*Salıncağa annesi binmedi, o bindi yalnız.*" - **Tarık Dursun K.**

Xorazm shevasida: *Atacan kızları için çarvakını ortasında sarıncan kurib bârdi.*

Uyanık soʻzi uygʻoq maʼnosida keladi. Xorazm shevasida ushbu soʻzning **uyanık** va **oyanık** kabi shakllari mavjud.

Masalan,

Turk tilida: "*Uyuyor mu uyanık mı kestiremiyor, uykuyla uyanıklığın sınırlarını bulamıyordu.*" - **Attila İlhan**

Xorazm shevasida: *Oyanık yatğanımni görgan ağam yabima galib otırdı.*

Musht maʼnosini beruvchi **yumruk** soʻzi xorazm shevasida ham bir xil shaklda talaffuz qilinadi.

Masalan,

⁸ www.sozluk.gov.tr

Turk tilida: "*Bir karış mesafeden incek yumrukla, bir metre mesafeden çakılacak yumruğun tesirleri arasında büyük fark vardır.*" - **Aka Gündüz**

Xorazm shevasida: *Hekim polvon bir yumruk bilan rakibini yıkıttı.*

Yumurta soʻzi turk tili va xorazm shevasida tuhum maʼnosini anglatadi. Talaffuzida ham farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: "*İki sarılı yumurta yumurtlayan bu canım legornlar iki üç gün ara ile birer birer helak olup gitmişlerdi.*" - **Haldun Taner**

Xorazm shevasida: *Ânam her gün azanda bizara yumurta taşap barar adi.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.
2. EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezmi-Oğuzcası. A. 2006
3. SAFEROGLU, Alunet, *Türk Dili Tarihi* I, II, İstanbul: Enderun Kitabevi.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. – Т., 1966.
5. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши. –Т.: Фан, 1976
6. www.sozluk.gov.tr